



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No3
MAXSUS SON

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICH'S WEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref

BAKALAVR TALABALARINING MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr.
2026-yil, aprel.*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanov Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

BUXGALTERIYA VA EKOLOGIK HISOBOT (ESG HISOBOTLARI).....	21
Abdukirimov Qamariddin Isroiljon o'g'li, Abdurashidov Faxriddin Fazliddin o'g'li, Beknazarov Zafarjon Ergachevich	
YASHIL INVESTITSİYALARNI RIVOJLANTIRISH – BARQAROR IQTISODIY O'SISHNING ASOSIY YO'NALISHI	26
Yarboyeva Farida Ulug'bek qizi, Yoqubova Zilola To'ra qizi	
RAQAMLI SOLIQ NAZORATINING BUXGALTERIYA TIZIMIGA TA'SIRI	30
Abdulaxatov Mirkomil O'rol o'g'li, Rustamov Davron Rustamovich	
ИННОВАЦИОННЫЙ МАРКЕТИНГ КАК ИНСТРУМЕНТ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СУБЪЕКТОВ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА	34
Насиров Дилшод Фархадович, Халманова Шахзода, Кенесбаева Азиза	
O'ZBEKISTON TURIZM TIZIMIDA QO'SHILGAN QIYMAT ZANJIRINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	39
Normurodov X.E., Abdurazakova Farangis Dilshod qizi	
СОВРЕМЕННЫЕ ШКОЛЫ НАУКИ УПРАВЛЕНИЯ И ИХ ОСНОВНЫЕ ИДЕИ.....	44
Латипов Ашур Али Рустам ўғли, Джамолова Хилола Исматиллаевна	
O'ZBEKISTONDA BUXGALTERIYA HISOBINI MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA MOSLASHTIRISH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI	50
Qosimova Fazilat Sherzod qizi, Shermuxamedov Bexzodjon Usmonovich	
MARKAZIY BANK RAQAMLI VALYUTALARI VA GLOBAL PUL TIZIMINING TRANSFORMATSIYASI.....	57
Jumanova Shaxlo Boxodir qizi, Shovkatov Nodirjon Ne'matjon o'g'li	



MARKAZIY BANK RAQAMLI VALYUTALARI VA GLOBAL PUL TIZIMINING TRANSFORMATSIYASI

Jumanova Shaxlo Boxodir qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Bank ishi fakulteti talabasi

Ilmiy rahbar:

Shovkatov Nodirjon Ne'matjon o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Baholash ishi va investitsiyalar kafedrasi dotsenti, PhD.

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot ish zamonaviy moliya olamidagi eng ulkan burilish – Markaziy bank raqamli valyutalari (CBDC) va ularning global pul-kredit tizimi poydevorini yangilashdagi o'rni tahliliga bag'ishlanadi. Maqolada pulning tangalardan qog'oz pullarga, qog'oz pullardan esa "dasturlanadigan algoritmlar"ga o'tish jarayoni chuqur iqtisodiy jihatdan muhokama qilinadi. Taqsimlangan reyestr texnologiyasining davlat suvereniteti bilan uyg'unlashuvi, moliyaviy ochiqlikning yangi natijalari hamda "raqamli so'm"ning O'zbekiston iqtisodiy taraqqiyotidagi strategik ahamiyati ilmiy asoslab berilgan. Tadqiqotda raqamli valyuta vositasida byudjet mablag'larining sarflanishi ustidan "aqlli nazorat" tizimini o'rnatish hamda korrupsion holatlarni bartaraf etishning institutsional mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, transchegaraviy amaliyotlarni soddalashtiruvchi "mBridge" loyihasi tahlil qilinib, raqamli valyutalarning an'anaviy bank tizimi likvidligi va depozitlar bazasiga ko'rsatadigan ta'siri bo'yicha ilmiy prognozlar ilgari surilgan. Maqola yakunida milliy moliya tizimini texnologik jihatdan transformatsiya qilish hamda kiberxavfsizlikni ta'minlash orqali iqtisodiy barqarorlikka erishishning mualliflik konseptual modeli taklif etiladi.

Kalit so'zlar: Pul-kredit transformatsiyasi, raqamli suverenitet, taqsimlangan reyestrlar, moliyaviy ochiqlik, aqlli shartnomalar, global valyuta tizimi, raqamli so'm.

Abstract. This study examines one of the most significant transformations in the modern financial landscape – Central Bank Digital Currencies (CBDCs) and their role in reshaping the foundations of the global monetary system. The article provides an in-depth economic analysis of the evolution of money from coins to paper currency and further to "programmable algorithms." It scientifically substantiates the integration of distributed ledger technologies with state sovereignty, highlights new dimensions of financial transparency, and emphasizes the strategic importance of the "digital soum" for Uzbekistan's economic development. The research explores institutional mechanisms for implementing "smart control" over public expenditure through digital currencies and reducing corruption risks. Furthermore, the study analyzes the "mBridge" project, which facilitates cross-border transactions, and presents forecasts on the impact of digital currencies on banking system liquidity and deposit bases. The paper concludes with a conceptual model proposed by the author for achieving economic stability through technological transformation of the national financial system and strengthening cybersecurity.

Key words: Monetary transformation, digital sovereignty, distributed ledgers, financial transparency, smart contracts, global monetary system, digital soum.

Аннотация. Данное исследование посвящено анализу одного из наиболее значимых переломов в современной финансовой системе – цифровым валютам центральных банков (CBDC) и их роли в трансформации глобальной денежно-кредитной системы. В статье глубоко рассматривается эволюция денег от монет к бумажным средствам, а затем к «программируемым алгоритмам». Научно обосновано взаимодействие технологий распределенного реестра с государственным суверенитетом, новые результаты финансовой прозрачности, а также стратегическое значение «цифровой сума» для экономического развития Узбекистана. В исследовании освещаются институциональные механизмы внедрения системы «умного контроля» за расходованием бюджетных средств посредством цифровой валюты и меры по снижению коррупционных рисков. Кроме того, анализируется проект «mBridge», упрощающий трансграничные операции, и выдвигаются научные прогнозы относительно влияния цифровых валют на ликвидность банковской системы и депозитную базу. В заключении предлагается авторская концептуальная модель достижения экономической устойчивости за счет технологической трансформации национальной финансовой системы и обеспечения кибербезопасности.

Ключевые слова: Денежно-кредитная трансформация, цифровой суверенитет, распределенные реестры, финансовая прозрачность, смарт-контракты, глобальная валютная система, цифровой сум.



KIRISH

So'nggi yillarda jahon iqtisodiyotida raqamli transformatsiya jarayonlari keskin jadallashib bormoqda. Ayniqsa, moliya va to'lov tizimlarida raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi an'anaviy pul tizimining funksiyalarini qayta ko'rib chiqishga olib kelmoqda. Shu jarayonning eng muhim yo'nalishlaridan biri Markaziy bank raqamli valyutalari hisoblanadi.

Markaziy bank raqamli valyutalari — bu mamlakat markaziy banki tomonidan chiqariladigan, nazorat qilinadigan va davlat tomonidan kafolatlangan milliy valyutaning elektron shaklidir. Kriptovalyutalardan farqli ravishda (CBDC — Central Bank Digital Currency) to'liq davlat nazorati ostida bo'lib, uning asosiy maqsadi to'lov tizimlarini modernizatsiya qilish, moliyaviy inklyuziyani kengaytirish hamda pul-kredit siyosati samaradorligini oshirishdan iborat.

Hozirgi kunda Xitoy, Yevropa Ittifoqi, AQSH, Hindiston va boshqa davlatlar CBDC loyihalarini ishlab chiqish yoki sinovdan o'tkazish bosqichida turibdi. Ushbu jarayonlarning shiddatli kechishi shuni ko'rsatadiki, Markaziy bank raqamli valyutalari (CBDC) shunchaki an'anaviy pulning elektron shakli emas, balki yangi avlod iqtisodiy munosabatlarining asosi hisoblanadi. Bugungi kunda moliya tizimi o'zining konservativ mexanizmlari, sekin kechuvchi banklararo transchegaraviy o'tkazmalari va yuqori tranzaksiya xarajatlari bilan zamon talablaridan orqada qolmoqda. Shu sababli, davlatlar nafaqat texnologik poygada qatnashish, balki o'zlarining pul-kredit mustaqilligini saqlab qolish uchun ham raqamli valyutalarni joriy etishga majbur bo'lmoqdalar.

1-jadval. Global miqyosda CBDC loyihalarining joriy holati va iqtisodiy maqsadlari¹.

Tizimning holati (Bosqichlar)	Davlatlar va mintaqalar	Asosiy iqtisodiy maqsadlari
To'liq joriy etilgan	Bagama orollari (Sand Dollar), Nigeriya (e-Naira), Yamayka (JAM-DEX)	Naqd pul emissiyasi xarajatlarini kamaytirish va moliyaviy inklyuzivlikni ta'minlash
Sinov bosqichi	Xitoy (e-CNY), Hindiston (e-Rupee), Braziliya (DREX), Rossiya (Raqamli rubl)	Chakana to'lov tizimlarining 24/7 rejimida ishlashini va samaradorligini oshirish
Ishlab chiqish va tadqiqot	AQSH (Raqamli dollar), Yevropa Ittifoqi (Raqamli yevro), O'zbekiston (Raqamli so'm)	Transchegaraviy to'lovlar xavfsizligi, pul-kredit suvereniteti va aqlli kontraktlar integratsiyasi

Xalqaro miqyosda Markaziy bank raqamli valyutalariga bo'lgan qiziqish shunchaki tendensiya emas, balki global zaruriyatga aylandi. Jahon yalpi ichki mahsulotining (YAIM) 98 foizini tashkil etuvchi 137 ta davlat CBDC ustida faol izlanishlar olib bormoqda. Bu ko'rsatkich 2020-yilning may oyida atigi 35 ta davlatni tashkil etgan edi. Hozirda 72 ta davlat tadqiqotning ilg'or bosqichida — ishlab chiqish, tajriba bosqichida. Ushbu keskin o'sish global pul tizimining raqamli transformatsiyasi qaytmas jarayon ekanligidan dalolat beradi. Agar XX asrda pul qudrati uning xarajasi bilan o'lgan bo'lsa, XXI asrda u algoritmning tezligi, ma'lumotlarning xavfsizligi va shaffofligi bilan belgilanadi.

CBDCni joriy etish orqali iqtisodiyotda quyidagi fundamental o'zgarishlar kutilmoqda:

- Transchegaraviy o'tkazmalarning inqilobi: Hozirgi kunda bir davlatdan ikkinchisiga pul o'tkazish bir necha kun davom etsa va yuqori foizli komissiyalar talab qilsa, CBDC orqali bu jarayon bir necha soniya ichida va minimal xarajat bilan amalga oshadi.

- "Aqlli" moliya nazorati: Raqamli so'm orqali ajratilayotgan byudjet mablag'lari va subsidiyalarning maqsadli sarflanishini real vaqt rejimida kuzatish imkoniyati paydo bo'ladi. Bu esa korrupsiya va "yashirin iqtisodiyot"ga qarshi kurashda eng samarali qurol hisoblanadi.

- Moliyaviy ochiqlik: Bank tizimidan uzoqda bo'lgan yoki chekka hududlarda yashovchi aholi uchun moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari kengayadi.

Bu jarayonlar global moliya tizimining yangi bosqichga o'tib borayotganini ko'rsatib, raqamli iqtisodiyot sharoitida barqaror va samarali rivojlanish uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Markaziy bank raqamli valyutalarining (CBDC) faoliyatini tadqiq etishda jahon iqtisodchi olimlari va xalqaro moliya institutlari tahlillari fundamental asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu yo'nalishdagi ilmiy bahslar asosan

1 Aqlli kontrakt — bu blokcheyn texnologiyasiga asoslangan dasturiy kod bo'lib, u ma'lum shartlar bajarilganda (masalan, tovar yetib kelganda) to'lovni avtomatik ravishda amalga oshirishni ta'minlaydi.



raqamli pulning an'anaviy moliya tizimidagi o'rni, moliya barqarorligi va pul-kredit siyosatining samaradorligi atrofida kechmoqda.

Eswar Prasad (Kornell universiteti professori va XVJning sobiq departament rahbari) o'zining mashhur *The Future of Money: How the Digital Revolution is Transforming Currencies and Finance* (2021/2024) asarida raqamli valyutalarni "moliya tarixidagi yangi davr" deb ataydi. Muallifning ta'kidlashicha, CBDC nafaqat to'lov vositalari, balki davlatning moliya tizimi ustidan nazoratini kuchaytiruvchi va naqd pul bilan bog'liq tranzaksiya xarajatlarini nol darajaga yaqinlashtiruvchi strategik vositadir.

Bank for International Settlements rahbari Agustin Carstens o'zining tahliliy ma'ruzalarida CBDC tizimini "ikki pog'onali ierarxiya" asosida qurish zarurligini ilgari suradi. Uning fikricha, Markaziy bank raqamli pul emissiyasini amalga oshirishi, biroq uning xalqqa yetib borishi va xizmat ko'rsatish jarayoni xususiy banklar orqali amalga oshirilishi kerak. Bu esa bank tizimidagi raqobat va barqarorlikni saqlab qolishning muhim yo'lidir.

Shuningdek, Tobias Adrian (XVJning Pul-kredit va kapital bozorlari departamenti direktori) "Raqamli pulning yuksalishi" (2023) nomli tadqiqotida CBDCning transchegaraviy to'lovlardagi inqilobiy o'rniga alohida to'xtalib o'tadi. Uning tahlillariga ko'ra, raqamli valyutalar "korrespondentlik bank tizimi"dagi murakkabliklarni chetlab o'tib, xalqaro savdoda valyuta risklarini minimal darajaga tushirish imkonini beradi.

O'zbekiston raqamli iqtisodiyot va moliya tizimi transformatsiyasini tadqiq etayotgan mahalliy olimlarimiz, xususan, B. Berdiyev va A. Omonovlar o'z ilmiy ishlarida raqamli so'mning joriy etilishi "yashirin iqtisodiyot" ulushini kamaytirishda va byudjet mablag'larining maqsadli sarflanishida innovatsion yechim bo'lishini ilmiy asoslab berganlar.

Yuqorida keltirilgan ilmiy qarashlar va xalqaro moliya institutlarining tahlillari shuni ko'rsatadiki, Markaziy bank raqamli valyutalari nafaqat texnologik yangilik, balki global pul-kredit tizimining barqarorligini ta'minlovchi fundamental mexanizmdir.

TAQDIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqola metodologiyasida tizimli yondashuv, tahlil va sintez, ilmiy abstraksiya hamda qiyosiy nazariy talqin usullaridan foydalanilgan. Tadqiqotning ilmiy asosini nufuzli xalqaro moliya institutlarining strategik hisobotlari hamda xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy nashrlarida chop etilgan tadqiqotlari tashkil etadi.


Metodologik yondashuv global moliya bozoridagi raqamli transformatsiya jarayonlarining milliy iqtisodiyotga ta'sirini har tomonlama chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Tadqiqotda ekstrapolyatsiya va qiyosiy tahlil usullari orqali dunyo mamlakatlaridagi CBDC loyihalarining joriy holati va iqtisodiy samaradorligi baholangan. Bundan tashqari, metodologiya doirasida raqamli valyutalarni joriy etishdagi iqtisodiy xatarlarni aniqlashda real iqtisodiy ko'rsatkichlarga asoslangan statistik umumlashtirish usullari qo'llanilgan bo'lib, bu olingan natijalarni ishonchli va amaliy jihatdan foydali qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Markaziy banklar raqamli valyutasi g'oyasi ilk marotaba 2015–2016-yillarda nazariy jihatdan ilgari surilgan bo'lsa-da, u 2020–2025-yillar oralig'ida global moliya tizimining amaliy poydevoriga aylandi. Fintex kompaniyalarining o'sib borayotgan bosimi va raqamli to'lov tizimlariga bo'lgan talabning keskin ortishi tranzaksiyalar tezligini oshirish, moliyaviy vositalar ustidan nazoratni kuchaytirish va monetar siyosatni bevosita aholiga yo'naltirish imkoniyatini yaratdi.

Xalqaro tajribaga nazar solinsa, Xitoyda "Digital Yuan" (e-CNY) loyihasi 2020-yildan boshlab bosqichma-bosqich joriy etildi va 2023-yil yakuniga kelib tranzaksiyalar hajmi 14 milliard AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2025-yil ikkinchi choragi holatiga ko'ra bu ko'rsatkich qariyb 25 baravarga o'sib, 360 mlrd (2,6 trln yuan)dan oshdi. Shuningdek, Nigeriyaning e-Naira tajribasi aholining 36 foizini raqamli moliya tizimiga integratsiya qilish orqali moliyaviy inklyuzivlikni oshirishga xizmat qilmoqda. Shvetsiyaning e-Krona loyihasi esa chakana to'lovlar segmentida naqd pulga bo'lgan ehtiyojni minimal darajaga tushirish imkoniyatini amalda isbotlamogda.

Biroq, raqamli valyutalarning joriy etilishi bilan bir qator tizimli tahdidlar va muammolar ham yuzaga kelmoqda. Birinchidan, tijorat banklaridagi depozitlarning Markaziy bank raqamli hamyonlariga oqib o'tishi ularning likvidligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. IMF (2025) prognozlariga ko'ra, bank tizimi depozit bazasining 12–15 foizga qisqarishi kreditlash hajmining kamayishiga va bozor foiz stavkalarining 1,5–2 foizga qimmatlashishiga olib kelishi mumkin. Ikkinchidan, kiberxavfsizlik masalasi global darajadagi eng jiddiy xatardir. Markaziy ma'lumotlar bazasiga qilingan kiberhujumlar milliy moliya barqarorligiga 10 trln dollargacha zarar keltirishi prognoz qilinmoqda. Shuningdek, foydalanuvchilarning maxfiylik huquqlari va shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish masalasi ham tizimning ommalashishiga to'sqinlik qiluvchi asosiy omillardan biri bo'lib qolmoqda.

**Global miqyosda CBDC loyihalarining miqdoriy rivojlanish ko'satkichlari (2020-2025 yy.)**1-rasm. CBDC loyihalarining miqdoriy rivojlanish ko'satkichlar²

O'zbekiston sharoitida raqamli valyutalarni joriy etish bir qator ijobiy natijalarni keltirib chiqarishi kutilmoqda. Xususan, "raqamli so'm" orqali davlat byudjeti ijrosining shaffofligini oshirish, subsidiya va nafaqalarni 99,7 % aniqlikda "manzilli" (targetlangan) yetkazib berish imkoniyati kengayadi. Bu esa o'z navbatida yashirin iqtisodiyot ulushini 18–20 foizga qisqartirishga xizmat qiladi. Markaziy bank tomonidan ishlab chiqilgan konseptual yondashuvga ko'ra, CBDC orqali foiz stavkalarini bevosita iqtisodiy agentlarga ta'sir qildirish mumkin, bu esa monetar uzatish mexanizmini 20–25 foizga samaraliroq qiladi.

Shunga qaramay, O'zbekistonda tizimni to'liq joriy etishdan oldin aholining moliyaviy savodxonlik darajasini va chekka hududlardagi texnologik infratuzilmani chuqur tahlil qilish hamda huquqiy asoslarni mustahkamlash talab etiladi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, raqamli valyutalarning imkoniyatlari ularning tahdidlariga qaraganda kengroq bo'lsa-da, ularni joriy etishda bosqichma-bosqich, ehtiyotkorlik bilan harakat qilish talab etiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Markaziy bank raqamli pullarining (CBDC) paydo bo'lishi jahon moliya tizimida yangi davrni boshlab bermoqda. Bugungi kunda oddiy qog'oz pullar va hozirgi bank tizimi xalqaro savdo-sotiq talablariga to'liq javob bera olmayapti, chunki pul o'tkazmalari uzoq vaqt oladi va xizmat haqi qimmat. Raqamli pullarning joriy etilishi davlatlararo hisob-kitoblardagi ortiqcha to'siqlarni olib tashlaydi va pul o'tkazmalarini bir necha soniya ichida amalga oshirish imkonini beradi. Xususan, Bank for International Settlements ma'lumotlariga ko'ra, bunday tizim xalqaro savdoda vaqt va xarajatlarni 40–50 foizgacha tejashi mumkin. Bu esa dunyo bozorida savdo-sotiqning yanada tezlashishiga va davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, dunyo pul tizimining yangilanishi davlatlarning o'z iqtisodiy mustaqilligini saqlab qolishida ham katta ahamiyatga ega. Hozirgi kunda turli xil nazoratsiz kripto valyutalarning ko'payishi markaziy banklarning pul nazoratini qiyinlashtirmoqda. Shuning uchun ham davlat tomonidan kafolatlangan raqamli so'm yoki boshqa valyutalarning chiqarilishi moliya tizimi barqarorligini ta'minlaydigan ishonchli qalqon vazifasini bajaradi. Bu esa raqamli pullarga o'tish butun dunyo uchun qochib bo'lmaz va zarur jarayon ekanligini ko'rsatadi.

Kelajakda jahon moliya tizimini yanada qulay qilish uchun raqamli pullarning yagona xalqaro qoidalarini ishlab chiqish va ularni bir-biriga moslashtirish lozim. Masalan, "mBridge" loyihasi kabi umumiy platformalar orqali turli davlatlar pullarini hech qanday ortiqcha banklarsiz, to'g'ridan-to'g'ri ayirboshlash imkoniyati tug'iladi. Shu bilan birga, banklardagi omonatlar kamayib ketmasligi uchun raqamli hamyonlarda saqlanadigan pul miqdoriga ma'lum cheklovlar qo'yish maqsadga muvofiqdir. Bu usul oddiy banklarning faoliyatini saqlab qolgan holda, aholi va tadbirkorlar uchun eng tezkor va xavfsiz to'lov tizimini yaratishga zamin yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, Markaziy bank raqamli pullari jahon iqtisodiyotida yangi tartib o'rnatishning asosiy vositasidir. Bu tizim xalqaro savdoni xavfsiz qiladi, o'g'rilik va firibgarliklarning oldini oladi hamda har bir davlat uchun dunyo bozorida munosib o'rin egallashga imkon beradi. Raqamli o'zgarishlarni to'g'ri tushungan holda, barcha davlatlar o'zaro hamkorlikda yagona qoidalarni joriy etishi kelajakdagi iqtisodiy barqarorlikning eng muhim omili bo'lib xizmat qiladi.

2 https://www.rbc.ru/crypto/news/6926e3039a7947c455aedb87?utm_referrer=https%3A%2F%2Fwww.google.com%2F



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Eswar Prasad. The Future of Money: How the Digital Revolution is Transforming Currencies and Finance. – Cambridge: Belknap Press of Harvard University Press, 2021. – 496 p.
2. Bank for International Settlements. Annual Economic Report 2024: A New Financial Market Infrastructure for the 21st Century. – Basel, 2024. – P. 65–88. – URL: <https://www.bis.org/publ/arpdf/ar2024e.htm>
3. International Monetary Fund. FinTech Notes: Central Bank Digital Currencies: Operational Resilience and Cyber Resilience. – Washington, D.C., 2025. – P. 32–40.
4. Atlantic Council. Central Bank Digital Currency (CBDC) Tracker: Global Overview. – Washington, D.C.: Geo-economics Center, 2026. – URL: <https://www.atlanticcouncil.org/cbdctracker/>
5. BIS Innovation Hub. Project mBridge: Connecting Economies through CBDC: Multi-asset and Multi-currency Platform. – Basel, 2025. – 50 p.
6. Omonov A., Berdiyev B. Raqamli iqtisodiyot: darslik. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2023. – 256 b.
7. Tobias Adrian., Grifoli T. M. The Rise of Digital Money. – IMF Publishing, 2023. – 28 p.
8. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. "Raqamli so'm" konsepsiyasi va joriy etish bosqichlari: rasmiy hisobot. – Toshkent, 2024. – URL: <https://cbu.uz>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

3-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>